

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

HAJVIYOTNING TURLARI

Ravshanova Gulruxbegim Qahramon qizi

QarshiDU, dotsent filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

+998972296927

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatidagi hajviy asarlarni tadqiq qilish an'anasi, ijodkorlarning hajvnavislik mahorati, hajviyotidagi o'tkir kulgining shakllari, hajviy asarlarida inson ma'naviyati va axloq muammolari tadqiq etilgan. Shu jihatdan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va Anvar Obidjon hajvlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda ko'pincha satirik kulgi va uning shakllari uchrashini ko'ramiz. Ijodkorlar hajvlarida kulgi niqoblari bir-biriga uyg'unlashadigan kinoya, zaharxanda, sarkazm, piching, fosh qiluvchi kulgi asosiy o'rinni egallashi ko'rsatib beriladi va hajviy asarning qimmatini oshiruvchi quroli bo'lmish kulgini hosil qiluvchi vositalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Hajviya, san'at, ma'naviyat, axloq muammolari, kulgi, yumor, mubolag'a, sarkazm, drama, an'ana, satirik kulgi, masxara qiluvchi kulgi, fiziologik kulgi.

Abstract

In this article, the tradition of researching comic works in new Uzbek poetry, the comic skills of creators, forms of sharp laughter in comics, human spirituality and moral problems in comic works are researched. In this regard, the analysis of the comics of Abdulla Oripov, Erkin Vahidov and Anvar Obidjon shows that satirical laughter and its forms often meet in them. It is shown that sarcasm, poison, sarcasm, sarcasm, sarcasm, and exposing laughter occupy the main place in comics of creators, and the means of creating laughter, which is a weapon that increases the value of a comic work, are studied.

Keywords: humor, art, spirituality, moral issues, laughter, humor, exaggeration, sarcasm, drama, tradition, satirical laughter, mocking laughter, physiological laughter.

Ma'lumki, kulgining manbai hayotdir. Jamiyat hayotidagi nuqsonlar, kamchiliklar, odamlar tabiatidagi salbiy xususiyatlar ustidan kulinadi. Hajviyot (komika)



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tushunchasi (komika: yunoncha - kulgili, quvnoq, qadimiy Yunonistonda Dionisning qishloq festivalida kulgili niqoblilar guruhi) bayramona o'yin-kulgi, havaskor xalq kulgusidan kelib chiqadi. Bu kundalik qayg'u va tashvishlarga qarshi turuvchi ruhiy erkinlik kulgisidir. Asosan, komika deganda tabiiy hodisalar, obyektlar va ular orasida vujudga keladigan munosabatlar va ma'lum bir ijodkorlik turi nazarda tutiladi, buning mohiyati biror bir tizim va hodisalarni ongli ravishda, komik taassurot uyg'otish maqsadida tashkil etish bilan izohlanadi. Shunday qilib, hajviyot bu ijtimoiy (estetik) kulgining asosi bo'lgan haqiqat obyektlarining o'ziga xos xususiyatidir. An'anaga ko'ra, hajviyot satirik va yumoristik turlarga bo'linib, yumor, satira va ironiya deb ataladigan uchta asosiy shaklda qo'llaniladi. Rus olimlari komikaning turli shakllarini ko'rib chiqish jarayonida, uning ikkita bo'limi: yurakdan (yumor) va yuraksiz (satira) quvnoqliklarga ajratadilar. Satira va yumor turli xil shakldagi hajviyotning so'nggi qutblaridan biri bo'lsa, ironiya esa komikaning oraliq shakli. Ta'kidlash lozimki, yumor, satira va ironiyaning asl holatlari hayotda juda kam uchraydi. Bu, birinchi navbatda, kulgining tabiati subyekt munosabatlari orqali belgilanishi bilan bog'liq, bu esa tashqi kuzatuvchiga baholashda qiyinchiliklar uyg'otadi. Masalan, ko'pincha bir gapning o'zida ham yumor, ham satira unsurlari bo'lishi mumkin, chunki subyekt mavzu(obyekt)ga nisbatan har ikki kulgini his qilishi mumkin. Hajviyotning yana bir mustaqil shakli sifatida "sarkazm" ajralib turadi. U komikaning birinchi qutbi bo'lsa, uning ikkinchi qutbi hazil (mutoyiba) deb hisoblanadi.

Biz Abdulla Oripov hajviyotini tadqiq etish jarayonida komikaning barcha shakllariga emas, balki faqat an'anaviylariga murojaat etamiz. Shuni qayd etish lozimki, shoir she'rlarida obrazlar turfa va rang-barang. Maymun, tulki, kalamush, quyon, bo'ri, shoqol, laylak, turna, it kabi xilma-xil obrazlarni she'r bag'riga joylaydiki, uni o'qigan kitobxon Gulxaniy masallari, Ezop masallarini yodiga olishi shubhasiz. Abdulla Oripov she'rlarida tabiat jonivorlarning kinoyaviy-parodik usulda idrok qilinishi shularjumlasidandir. Shoirning "Ikki kalamush" she'rida poetik obraz juda oddiy bo'lgani bilan hajv qilinayotgan masala hayotga ko'chirilsa hammasi oydek ravshanlashadi:

Kalamushlar, kalamushlik ishi qolib,
Talashardi uyasidan chiqib olib.
Men adirning bu yog'idan, derdi biri,
Men adirning u yog'idan, derdi biri.
Ikkisi ham qo'yimadi hech kerilarin,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bir kun ovchi shilib ketdi terilarin.

Aytganlarim hikmat emas, masal emas,

Har kimga ham yoqadigan asal emas.

Ochiq gap shul: ajratmangiz yeringizni,

Toki shilib ketmasinlar teringizni¹.

Mazkur she'rda kalamush timsolida jamiyatda bo'layotgan katta-kichik ishlarni keskin tanqid qiladi. Hajviy kesatik va yumor she'rda odamlarning ruhiyatida bo'layotgan o'zgarishlarni talqin qilganligida ko'rinadi. Hayotning har bir masalasi, muammo sifatida shoir yuragida boshqacha ravishlana boradi. Kalamushdek talashib yashash ongli mavjudot –odamning ishi emasligini o'tkir istehzoleydi. Satira, ironiya, kinoya (sarkazm) va yumor. Satira ko'proq dunyoning nomukammalligini va insoniy illatlarni shafqatsizlarcha masxara qiluvchi komik turdir. Satira deganda hajvni san'atda namoyish etish usuli hamda masxara qilish tufayli muallifga nuqsonli bo'lib tuyulgan hodisa yoki narsani yo'qqa chiqarish tushuniladi. Unda fosh etish xususiyati mavjud bo'ladi. Hajvnavis olib borilayotgan hayot hodisalarini tahlil qiladi, uning asl mohiyati yashirin ko'rinadigan va aldamchi kiyimlarni olib tashlaydi, befarqlik, go'llik, shuhratparastlik, ochko'zlik va insonning boshqa kamchilik hamda illatlarini fosh qiladi. Bundan tashqari, hajvnavis har doim salbiy hodisa va holatlarni yerga urishga, uning bema'ni, badbashara ko'rinishini g'azab va nafrat to'la kulgi bilan ifodalab berishga intiladi.

Satira hajv subyektining o'z obyektiga bo'lgan munosabatini tavsiflash bilan birga, "masxarali kulgi"da inson o'zi bilmagan holda masxara qilinayotgan inson bilan o'zini taqqoslashi hamda o'zida bu kamchiliklarni topmasligini ko'rish mumkin. Shuning uchun rassom o'quvchida hayotning tanqidiy hodisalariga nisbatan ustunlik hissini uyg'otib, o'z maqsadiga erishadi. Satira ijtimoiy muhitda muhim hisoblangan illatlarni estetik tanqid shakli sifatida ko'rib chiqishi mumkin.

Hajviyotning ikki shakli – satira va yumor gruzin yozuvchisi N. Dumbadze tomonidan mahorat bilan taqqoslangan: "Satira va yumor bir onaning farzandlari. Yumor – bu iliq suv kabi isituvchi va erkalovchidir, kirlarni ham ketkaza oladi. Satira esa qaynoq suv, u nafaqat kirlarni yuvadi, balki kuydiradi ham"². Darhaqiqat, she'r ijtimoiy yolqinlik kasb etishi uchun ham ma'lum davr elagida yuzaga chiqadi.

¹ Орипов А. Танланган асарлар. 2-жилд. –Т., F.Фуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2001. –Б.278.

² Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброхимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б.308.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Zamon tegrasida bo‘layotgan o‘zgarishlar shoir idrokida qayta baholanishi ham shundandir. Prof. Q.Yo‘ldoshev: “Yumor – Abdulla Oripov ijodiga doimiy yo‘ldosh. Shoirning yumori hamisha dard, mung bilan qorishiq kelgani, g‘amdan tug‘ilgan kinoya, piching, kosa tagida nimkosa singari belgilarga egaligi sabab faqat kulgi uyg‘otish bilan cheklanmaydi. Bunday xususiyat shoir ijodining turli davrlarida bitilgan “Hangoma”, “Turmush tashvishlari”, “Tulki falsafasi”, “Adibadi haqida rivoyat”, “Maymuniyat”, “Tanishlar”, “Tarbiya”, “Sharq hikoyasi” yanglig‘ ko‘plab she‘rlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi”³. Mana shu sanab o‘tilgan jihatlarining ko‘pchiligi shoir she‘rlarida “inkor va tasdiq” ruhida yuzaga chiqishini e‘tiborga olish zarur. Unda 60- yillardagi urushdan keyingi kayfiyat, xalqni og‘ir mehnatga eksplantatsiya qilinishi, jamiya hayotidagi bir xillik avjiga chiqqan, hur fikrlikning qattiq siquvga olinishi natijasida adabiyotdagi bir yoqlama sinfiy qarashlarning ham ta‘siri borligini, shunday bo‘lsa-da, ijodkor o‘ziga yangi so‘qmoqlar topishga erishishi quvonarli hodisadir. Jamiyat ich-ichidan soxta metodga tamomila bo‘ysundirilishi, kommunizm qurish haqidagi hayqiriqlar, da‘vatlar, yig‘inlar negizida asl san‘atdan xalqning didi uzoqlashishi, san‘atkorning yig‘i va kulgisi ham samimiy bo‘lishi lozimligi nazarda tutilgan. Demak, jamiyatdagi o‘shish-o‘zgarishlar A.Oripov poetik olamida – hajviyot jiddiy ruhda inkishof qilingan. Bu esa, o‘z navbatida, hayot manzaralarini tipiklashtirishda muhim ahamiyat kasb etishini kuzatamiz.

Ironiya (kesatiq, istehzo) hajvning yana bir mustaqil turi sifatida ajratib turadi. Ironiya an‘anaviy ravishda yumor va satira o‘rtasidagi, aniqrog‘i, yumor va sarkazm (kinoya) o‘rtasidagi oraliq shakl sifatida qabul qilinadi. Ironiyada yumorga nisbatan tasvirlanayotgan hodisa kamchiliklari uning yanada muhim xususiyatlari bilan bog‘liq holda keskinroq ifodalanadi. Bu unga nisbatan nafrat bilan munosabatda bo‘lish uchun zamin yaratadi.

Agar ironiya yomon, kuchli masxara ko‘rinishida bo‘lsa, u sarkazm deb ataladi. Sarkazm hajvning asosiy va mustaqil shakllaridan biri hisoblanadi. I.V. Popchenko, Y.Borev, Y.B.Latishev va boshqa bir qator komik tadqiqotchilar o‘z asarlarida bu fikrni ta‘kidlab o‘tishgan. Sarkazm (yunoncha tana) - bu tanaga sanchiladigan kuchli masxara, achchiq ironiya; ironiya bilan har bir narsani dalillab ko‘rsatib beruvchi, ayniqsa, o‘zining ijtimoiy oqibatlari bilan xavfli hisoblanuvchi janrdir, shunday qilib sarkazm – ironiyaning eng yuqori darajada namoyon bo‘lishi bo‘lib, ironiyadagi

³ Йўлдошев Қ. Сўз ёлкини. Т., “Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”. 2018. –Б.258.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

faqatgina salbiy baho berilishidan farqli o'laroq, o'zining shafqatsiz hamda yo'q qiluvchi kuchga ega baholari bilan ajralib turadi.

Abdulla Oripov hajviy she'rlarining aksariyatida ironiya, sarkazm, zaharxanda kuchli ekanini ko'ramiz. Bu xususiyat qahramon nutqi orqali fosh etish ruhi ustuvorligida namoyon bo'ladi. Bu esa shoir uslubining yetakchi xususiyatlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. "Ranjkom" dramasi shoir o'zini ko'rsatmaydi, so'zni qahramonning o'ziga berib qo'yadi. Bu usulning ham bir qator afzalliklari bor: hajviy qahramon o'z nutqi bilan o'zini fosh etadi va o'quvchining kulgisiga sabab bo'ladi ammo, kulgiga qolganini sezmaydi; so'z tejalib, ixchamlik yuzaga keladi; shoir o'zining ijtimoiy hayotga, davr illatlariga qarshi subyektiv fikrlarini yashiradi, ularga qahramon ko'zi bilan qarab baho berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dramada qayta qurish va oshkoralik okoplariga kirib olgan, o'z manfaatlari yo'lida baqirib-chaqirib yuruvchi amaldorlar, sharoitga moslashuvchi xudbinliklar qoralanadi. Unda hayotimizdagi barcha manfiy hodisalar ochib tashlanadi. Asarda shoir rais va uning ikki yordamchisi nutqi orqali ularning kirdikorlarini ochib tashlaydi, o'zining pozitsiyasini bir qadar pardalab ko'rsatishga harakat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. –T., "G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 2019. –B.31.
2. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri ocherki. –T., "FAN". 2008. -B.55.
3. Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha. –T., "Akademnashr". 2014. –B.185.
4. Obidjon A. Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni. –T., "Sharq". 2003. -B.12.
5. Quronov D. va bosh. Adabiyotshunoslik lug'ati–T., "Akademnashr". 2010. –B. 139-140.
6. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1970. – B.308.
7. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. T., "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2018. –B.258.
8. Vohidov E. She'r dunyosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., "Sharq". 2001. –B.180.
9. Shukurov N. Jonim – she'riyatim. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –T., "Turon-Iqbol". –B.104.
10. Vohidov E. Umrin daryosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., "Sharq". 2001. –B.103.

